



XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL'A TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 13-aprel

VI-73-46-13-194-K/24

Ellikqal'a tumani

Ellikqal'a tumanida 2024-yilda qurilish sohalaridagi rejorashtirilgan ishlarini ijro etilishi va 2024-yil 1-choragida amalga oshirigan ishlari yuzasidan tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribosari A.K.Seitovning hisoboti

Ellikqal'a tumanida 2024-yilda qurilish sohalaridagi rejorashtirilgan ishlarini ijro etilishi va 2024-yil 1-choragida amalga oshirigan ishlari yuzasidan tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribosari A.K.Seitovning hisobotini tinglab va muhokama qilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Ellikqal'a tumanida 2024-yilda qurilish sohalaridagi rejorashtirilgan ishlarini ijro etilishi va 2024-yil 1-choragida amalga oshirigan ishlari yuzasidan tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribosari A.K.Seitovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribosari A.K.Seitovga:

- shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- qurilish sohasiga zamonaviy standartlarni joriy etish, ko'p qavatli uy-joylarda energiya sarfini va issiqlik tarmoqlarida energiya yo'qotishlarini kamaytirish;

- tadbirkorlik sub'ektlarining shaharsozlik faoliyatini cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash sud tartibida amalga oshirishni tashkil etish, o'zboshimchalik bilan quriladigan imoratlarni oldini olish va bu borada amalga oshirilganlarni bartaraf etish maqsadida tegishligicha vakolatli organlarga taqdimnoma kiritish orqali murojaat qilish;

- mahallalarda yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma ob'ektlarini qurish-ta'mirlash ishlarining manzilli dasturiga muvofiq ob'ektlarning loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilishini ta'minlash mahalliy ichki avtomobil yo'llarini va transport kommunikatsiya tizimini ta'mirlash, ichimlik suvi va oqava SUV ta'minotini yaxshilash, elektr energiyasi va gaz ta'minoti hamda ko'chalarni yoritish tizimini tiklash, issiqlik tarmoqlarini modernizatsiya qilish,

mahalla aholisining farovon turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish maqsadida ijtimoiy va muhandislik infratuzilmalarini saqlash va asrab-avaylash bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda tegishli chora tadbirlar ko‘rish;

- aholi punktlarini qurish qoidalari loyihaslarini tasdiqlash uchun tegishli vakillik organlariga kiritish;

- aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil qilish, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring yuritish vazifasi yuklatilsin.

3. Ellikqal’ a tuman hokimining o‘rinbosari (A.K.Seitov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (N.U.Serjanov), Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorati bo‘yicha Ellikqal’ a tumani bo‘lim boshlig‘i (K.Mirzaqulov):

- “Yashil makon” umummilliyl loyihasini amalga oshirish va nazoratni olib borish;

- atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish;

- atrof-muhitga asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatining qonuniyligini o‘rganish;

- daraxtlarni kesishga joriy etilgan moratoriyl talablariga bo‘ysunmagan davlat tashkilotlari va xususiy sub’ektlarning mansabdar shaxslariga qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bo‘yicha hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tegishli ishlar olib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.K.Seitov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi J.D.Jabbarov zimmasiga yuklatilsin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi o‘rinbosari



BAYNAZAROV ANVAR
KALANDAROVICH